

XALQARO INVESTITSIYA HUQUQI VA UNING ASOSIY MANBAALARI

*Abdukadirova Shoxina Abduqodir qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro biznes huquqi” fakulteti magistranti
e-mail: abduvaliyevashahina3@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Investitsiya huquqi o’zi nima ekanligi, xalqaro investitsiya huquqi, faoliyati mazmun mohiyati va maqsadi yoritilib, kelajakdagi rivojlanishi va egallaydigan o’rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Xalqaro investitsiya shartnomalari, investitsiya huquqi manbaalari o’rganilib, ICSID konvensiyalari, hamda, BIT lar to’g’risida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: Investitsiyalar, Investitsion faoliyat, Investitsion faoliyat subyektlari, investorlar, reinvestitsiya, investitsiya manbaalari, ICSID konvensiyasi, Bilateral Investment Treaties (BIT).

Abstract: In this article, what is Investment Law itself, International Investment Law, its content, essence and purpose, its future development and future role will be analyzed. International investment agreements, sources of investment law are also studied, ICSID convention, as well as BITs are discussed.

Key words: Investments, Investment activity, Investment activity subjects, investors, reinvestment, investment sources, ICSID convention, , Bilateral Investment Treaty (BIT).

Xalqaro investitsiya faoliyati mamlakatlar iqtisodiyotiga daromad eshigi sifatida xizmat qilishi, uning rivojlanish oqimini yanada jadallashtirishiga qo’shgan hissasi, sanoat va ishlab chiqarish sohalaridagi progressive o’sishga sabab bo’ladigan yo’l ekanligi sababli, global iqtisodiyotni shakllantirish va unga ta’sir qilishda hal qiluvchi va ko’p qirrali ro’l o’ynaydi. Bu esa har bir davlat o’z iqtisodiy globallashuvi jarayonida investitsiya faoliyatini qo’llab quvvatlashiga, ularning oqimini yanada jadallashtirish uchun harakat qilishiga, har bir sohalarda investitsiya faoliyatini shakllantirib, faoliyat iahtirokchilarini rag’batlantirishiga sabab bo’ladi.

“Investitsiya” atamasi imloviy jihatdan qaralganda, lotincha so’zdan olingan bo’lib, “invest”, ya’ni “qo’yilma” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni investitsiyalar kelajakda vaqt o’tishi bilan daromad olish, kapital qiymatini saqlab qolish, inflyatsiya ta’siridan saqlash yoki ko’paytirish maqsadida aktiv, loyiha, biznes yoki moliyaviy tadbirga kapital qo'yishni o'z ichiga oladi. Investitsiyalar kiritilayotgan kapital turiga qarab turli shakllarda bo’lishi mumkin, jumladan, pul, qimmatli qog’ozlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksel, sertifikatlar, yer, bino, ko’chmas mulk, inshoot, korxonalar, intellectual mulk bo’lgan ilmiy kashfiyotlar va boshqalar. Investitsion qarorni havfsiz

bo'lishiga va ko'zda tutilgan maqsadga erishilishiga ko'pincha xavf-xatarlarga chidamlilik, moliyaviy maqsadlar va bozor sharoitlari kabi omillar ta'sir qiladi.

Investitsiya huquqi tushunchasining mazmunini yoritishda quyidagi bir qator mualliflarning fikr mulohazalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Investitsiya huquqi – investitsiyalarni jalg qilish, amalga oshirish va ularning ustidan nazoratni olib borishga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui. Shu jumladan, investitsiyalarni davlat ro'yxatiga olish va ularga doir munosabatlar taraflarning javobgarligidan kelib chiqadigan munosabatlar"¹

"Investitsiya huquqi o'zini hosil qiluvchi institutlarning birligi bilan ajralib turuvchi, huquq investitsiya huquqi huquqning asosiy sohalari bilan bir qatorda, mavjud, bulgan kompleks soha hisoblanadi va huquq tizimida uzining alohida o'rnini egallaydi".²

"Investitsiya huquqi - investitsiyalarni jalg qilish, ulardan foydalanish va nazorat qilish, hamda amalga oshirilayotgan investitsiya faoliyatiga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidan, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlar uchun investorlarning javobgarligi bilan bog'liq munosabatlardan iborat huquq sohasi sifatida tavfsiflaydi."³

"Investitsiya huquqi asosiy huqqu sohalari bilan bir qatorda mavjud bo'lgan kompleks soha hisoblanadi va huquq tizimida alohida o'rinni egallaydi."⁴

Investitsiya faoliyatining subyektlari investorlar va investitsiya ishtirokchilari hisoblanadi.⁵

Investorlar daromad topish maqsadida o'z kapitallarini investitsiya faoliyati ishtirokchisi olib borayotgan faoliyatga kiritadilar. O'z navbatida ishtirokchilar investorlar buyurtmalarini bajarish orqali, ushbu faoliyatni amalga oshishini ta'minlaydilar va ular tomonidan kiritilgan kapital hisobiga foyda topadilar.

Ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasida investitsiyaga, investorlar tomonidan daromad topish yoki ijtimoiy taraqqiyotga erishishni ko'zlab, moliyaviy va moddiy kapitallarni, shuningdek, mol-mulkka hamda

¹ Bozorov R.B Теоретические проблемы правового регулирования инвестиции в Республике Таджикистан: концепции и правоприменение. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. - Душанбе - 2018.- С. 9.

² Мороз С.П. Актуальные проблемы инвестиционного права: Курс лекций. - Алматы: НИЦ КОУ, 2013. - С. 18.

³ Гущин В.В. Инвестиционное право: Учебник / В.В. Гущин, А.А. Овчинников. - изд. 2-е перераб. и доп. - М.: Эксмо, 2009. - С. 7.

⁴ Фархутдинов И.З. Инвестиционное право: учеб.-практ пособие / И.З. Фархутдинов, В.А. Трапезников. - М.: Волтерс Клувер, 2006. - С. 12.

⁵ 2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida", O'RQ-598-сон

25.12.2019 <https://www.lex.uz/docs/-4664142>

itellektual mulkka bo'lgan huquqlarni, agar, ular o'zлari a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomiladan chiqarilmagan bo'lsa yoki muomilda bo'lshi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir⁶.

"Ko'p tomonlama investitsiya kafolatalari agentligini tashkil etish" to'g'risidagi 1985-yildagi Seul konvensiyasida investitsiyalarning uch asosiy belgisi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur konvensiya bo'yicha xizmat ko'rsatish investitsiya sifatida e'tirof etmaydi, ya'ni, avvalo konvensiya a'zolari investitsiyalarni pul qo'yilmasi tarzida yoki natura shaklida amalga oshirilishi lozimligidan kelib chiqib harakat qiladilar.⁷

Ushbu faoliyatning davlat rivojiga qo'shishi mumkin bo'lgan ulkan hissalari, hamda, uning xalqaro huquq tizimida har ikki tomonga ham keltiradigan foydasi bilan o'zining muhim ahamiyatini belgilab beradi.

Hususan:

1. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish:

- Xalqaro investitsiyalar, hususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Ular mezbon mamlakatlarda samaradorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlab, ijtimoiy sohalarga mablag', yangi texnologiyalar va horijiy tajribani olib keladi.

2. Ish yaratish va ko'nikmalarni o'tkazish:

- Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda investitsiya kiritilayotgan ma'lum bir sohani qo'llab quvatlash orqali, yangi ish o'rinalarini yaratadi. Bu esa o'z o'zidan mamlakat aholisi o'rtasidagi ishsizlik darajasini pasayishi kuzatilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, investorlar faoliyatini olib borish davrida foydalananadigan o'z salohiyat, ko'nikma va bilimlarini mahalliy ishchilarga uzatish orqali, mahalliy ishchi kuchlarining imkoniyatlarini oshirishi va yangi bilim-ko'nikmalarni o'rgatishlari mumkin.

3. Savdo va bozorga kirish:

- Xalqaro investitsiyalar mamlakatlar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarni vujudga keltiradi, savdo va bozor sohalaridagi hamkorlikni osonlashtiradi. Chet elga sarmoya kiritadigan kompaniyalar ko'pincha transchegaraviy savdo bilan shug'ullanadilar va bu iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni oshirishga yordam beradi.

4. Infratuzilmani rivojlantirish:

- Xorijiy investitsiyalar ko'pincha qabul qiluvchi mamlakatlarda infratuzilmani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Investorlar transport, energetika va telekommunikatsiyalar, umumiy infratuzilma va ulanishni yaxshilash bilan bog'liq loyihalarda ishtiok etishlari mumkin. Bu to'g'ridan to'gri aholining turmush faoliyati, uning faravonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Diversifikasiya va xavfni kamaytirish:

⁶ Investor huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasi. 1997-yilda qabul qilingan.

⁷ Establishing the multilateral investment guarantee agency. Convention, October 11, 1985 years.

- Investorlar uchun xalqaro investitsiyalar diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Sarmoyalarni turli mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab tarqatish orqali investorlar iqtisodiy tanazzul yoki muayyan bozorlardagi qiyinchiliklar bilan bog'liq xavflarni kamaytirishi mumkin.

6. Texnologiyalar transferi va innovatsiyalar:

- Xalqaro investorlar ko'pincha mezbon mamlakatlarga ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni olib kelishadi. Texnologiyaning ushbu transferi mahalliy sanoatni faollashtirishi, innovatsiyalarni rag'batlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

7. Raqobat va samaradorlikni rag'batlantirish:

- Xalqaro investitsiyalar mezbon bozorlarda raqobatni rag'batlantiradi, samaradorlikni oshiradi va mahalliy kompaniyalarni raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun mahsulot va xizmatlarini yaxshilashga undaydi.

8. Valyuta va kapital bozorlari:

- transchegaraviy investitsiyalar valyuta va kapital bozorlarining likvidligi va samaradorligiga yordam beradi. Juhon moliyaviy bozorlarida ishtirok etuvchi investorlar likvidlikni oshiradi va valyutalar barqarorligini ta'minlaydi.

9. Global qiymat zanjirlari:

- Xalqaro investitsiyalar global qiymat zanjirlarining ishlashi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompaniyalar maxsus ko'nikmalar, resurslar va iqtisodiy samaradorlikdan foydalanish uchun turli mamlakatlarga sarmoya kiritib, global iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligiga hissa qo'shadilar.

10. To'lov balansi:

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakatning to'lov balansiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa, bu eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga olib kelganda yoki investorlar foydani vataniga qaytarganda.

11. Davlat daromadlari va soliqqa tortish:

- Hukumatlar ko'pincha soliq tushumlari orqali xalqaro investitsiyalardan foyda ko'radi. Bundan tashqari, transmilliy korporatsiyalarning mavjudligi mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirishi mumkin, bu esa qabul qiluvchi mamlakat uchun soliq tushumlarining oshishiga olib keladi.

Xalqaro investitsiyalar ko'p foyda keltirsa-da, ular, jumladan, boshqaruv, ekologik barqarorlik va mahalliy hamjamiyatlarga tegishli bo'lgan salbiy ta'sirlar bilan bog'liq muammolar va xavflarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tegishli tartibga solish va nazorat tizimini o'rnatilishini taqazo qiladi.

Mohiyatan, xalqaro investitsiyalar hamkorlik, innovatsiyalar va global o'zaro bog'liqlikni rag'batlantiradigan, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli harakatlantiruvchisi bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiya huquqining manbaalariga to'xtalishdan oldin, avvalombor huquq manbaalari nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. Demak, imloviy jihatdan huquq manbasi-huquq normalarining ifoda etilgan shakllarini anglatadi. Huquqning birlamchi manbai xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va qoidalari hisoblanadi.⁸

Xalqaro investitsiya huquqi manbaalari turfa hujjatlar va tamoyillarni o'z ichiga olishi bilan farqlanadigan, xalqaro investitsiya kelishuvlaridan iborat. Ularning asosiy vazifalari investor va investitsiya kiritilayotgan davlatlar o'rtaсидаги huquq va majburiyatlarni belgilash orqali faoliyatni rag'batlantirshdir. Quyida bir nechta asosiy manbaalarni ko'rishimiz mumkin:

- “Bilateral Investment Treaties (BITs)” – davlatlar o'rtaсидаги kelishuv bo'lib, u davlatlar yoki, kompaniyalar tomonidan boshqa davlatga hususiy investitsiya kiritish shart-tamoillarini belgilaydi. BIT asosan investorlar huquqlarini himoya qilish, nizolarni hal qilish mexanizmlarini, shuningdek, boshqa huquq va majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

- Ba'zi investitsiya qoidalari - “Jahon savdo tashkiloti (WTO)” kabi bitimlarga kiritilgan bo'lib, ular ham tomonlar o'rtaсидаги tartib qoidalarni o'z ichiga oladi.

- Mintaqaviy kelishuvlar hududlar o'rtaсидада tuzulib, Yevropa Ittifoqi o'zining a'zo davlatlari uchun tuzgan investitsiya shartnomalari to'plamini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

- Milliy qonunlar va qoidalari - chet el investitsiyalarining huquqiy asoslarini shakllantirishda alohida mamlakatlarning ichki qonunlari va qoidalari muhim rol o'ynaydi. Bularga xorijiy investitsiyalar, tadbirkorlik subyektlari va mulk huquqini tartibga soluvchi qonunlar kiradi.

Hozirgi davrda Investitsiya huquq tizimidagi bir qator kamchiliklar tanqidlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan:

-tizimda investitsiya qoidalarni tartibga solish va qo'llashda muvoffiqlikning yo'qligi ko'p noaniqliklarni keltirib chiqarayotgani;

- “Investor-State Dispute Settlement (ISDS) issues” ya'ni, “Investor-davlat nizolarini hal qilish” bo'yicha mexanizmning milliy noshaffoflik va hakamlik sudyalarining nosubyektiv munosabati davlat suverenitetga putur yetkazishi mumkinligi;

-rivojlangan va endi rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaсидада olib borilayotgan muzokaralar odatda iqtisodiy jihatdan qudratliroq mamlakatlar hisobigaadolatsiz tarzda hal qilinish ehtimoli ko'pligi;

-ko'p miqdorda sarf harajatalarga olib keladigan arbitraj sudlaridan qochish maqsadida, hukumatlarning qonuniy va zarur davlat siyosatini amalga oshirishni to'xtatib, chet ellik investorlar tomonidan vujudga keltirishi mumkin bo'lgan nizolardan qo'rqlichlari.

⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Huquq_mandalari

Hozirgi vaqtda ko'p davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan muzokaralar mavjud investitsiya shartnomalariga aloqador muammolarni isloh qilish, nizolarni hal qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilganligi, xalqaro investitsiya huquqidagi rivojlanish mashtabini yanada mukammalashishiga xizmat qiladi. Sarmoyodorlar huquqlarini himoya qilish va mezbon mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab quvvatlagan holda, jamoaat manfaatlariga shikast yetkazmaslik o'rtasidagi muvozanatni saqlash ushbu islohotlarning yakuniy maqsadi bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro investitsiya huquqi transchegaraviy investitsiyalarni tartibga soluvchi, nizolarni hal qilish mexanizmlari, hamda, investorlar huquqlarini kafolatlovchi asos bo'lib xizmat qiladi. Uning asosiy manbaalari, jumladan, xalqaro shartnomalar, urf odatga asoslangan qonunlar va umumiyligi prinsiplarning umumlashishi oqibatida investor va davlat o'rtasidagi dinamik manzarasi tashkil topadi. Global o'zaro iqtisodiy bog'liqlik o'sishda davom etishni ta'minlash uchun, xalqaro investitsiya huquqi manbaalarini chuqur tushunish, xalqaro investitsiyalar uchun qulay muhitni yaratish va har tomonlama adolatli va teng munosabatlarni ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Bozorov R.B Теоретические проблемы правового регулирования инвестиций в Республике Таджикистан: концепции и правоприменение. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. - Душанбе - 2018.- С. 9.
2. Мороз С.П. Актуальные проблемы инвестиционного права: Курс лекций. - Алматы: НИЦ КОУ, 2013. - С. 18.
3. Гущин В.В. Инвестиционное право: Учебник / В.В. Гущин, А.А. Овчинников. - изд. 2-е перераб. и доп. - М.: Эксмо, 2009. - С. 7.
4. Фархутдинов И.З. Инвестиционное право: учеб.-практ пособие / И.З. Фархутдинов, В.А. Трапезников. - М.: Волтерс Клювер, 2006. - С. 12.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida", O'RQ-598-сон 25.12.2019 <https://www.lex.uz/docs/-4664142>
6. Investor huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasi. 1997-yilda qabul qilingan.
7. Establishing the multilateral investment guarantee agency. Convention, October 11, 1985 years.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Huquq_manbalari
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844066>